

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NORQULOV MIRSAID TO‘LQIN O‘G‘LI

**AKSIYADORLIK JAMIYATINI KAPITAL TARKIBINI
SHAKLLANTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Norqulov Mirsaid To'liqin o'g'li

Aksiyadorlik jamiyatini kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini
takomillashtirish..... 3

Норкулов Мирсаид Тулкин угли

Совершенствование практики формирования структуры капитала
акционерного общества..... 25

Norkulov Mirsaid Tulkin ugli

Improving the practice of forming the capital structure of a joint-stock
company..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NORQULOV MIRSAID TO‘LQIN O‘G‘LI

**AKSIYADORLIK JAMIYATINI KAPITAL TARKIBINI
SHAKLLANTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida PhD2024.2.PhD/Iqt4104 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xudoyqulov Xurshid Xurramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karlibayeva Raya Xojabayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja O'g'li
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «_» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil «_» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini samarali shakllantirish korporativ moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investorlar uchun risk-daromad muvozanatini optimallashtirish hamda bozor qiymatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Optimal kapital tarkibiy tuzilmasining tanlanishi aksiyadorlik jamiyati moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi, qarz va o'z kapitali nisbatining maqbul darajada saqlanishi esa soliq dastaklaridan foydalanish orqali moliyaviy samarani kuchaytiradi va qarzdorlik xavflarini cheklaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, MSCI World Index tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari dunyo bozor kapitalizatsiyasining 85 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Masalan, "AQSh va Yevropa davlatlarida jahonning eng yirik aksiyadorlik jamiyatlari yillik o'rtacha 7-10 foizlik o'sish ko'rsatkichlarini namoyish etmoqda. 2022-yilda jahonning 500 ta eng yirik korporatsiyasining umumiy daromadi 37 trln. AQSh dollarini tashkil etgan, bu ko'rsatkich 10 yil avvalgiga nisbatan 65 foizga o'sgan"¹. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va kapital strukturasi diversifikatsiya qilish kabi elementlar asosiy tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahonda turli ilmiy markazlar va tadqiqot institutlari aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib bormoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirishda moliyaviy ko'rsatkichlarning ta'siri, dividend siyosatini optimallashtirish va moliyaviy xavflarni boshqarishga oid tadqiqotlar keng tarqalgan. Xalqaro ilmiy markazlarda aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish, korporativ boshqaruv mexanizmlarini yaxshilash, xalqaro moliyaviy standartlarni tatbiq etish, moliyaviy resurslarni boshqarishni avtomatlashtirish, moliya tizimi va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish jabhalarini qamrab olgan. Bundan tashqari, Osiyo va Afrika mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlarining transformatsiya jarayonlari, kapital bozorlarining rolini kuchaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish masalalari tadqiqot obyektiga aylangan. Ilmiy ishlar tendensiyalari raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va blokcheyn platformalarining aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishga integratsiyasini tadqiq etishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning strategik segmenti bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish va xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotni oshirish ustuvor

¹ MSCI World Index // <https://www.msci.com/documents/10199/ce75600b-9451-4f93-be4f-573b702a4827>

yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq, tadqiqotlarda moliyaviy samaradorlikni baholash mezonlari, moliyaviy strategiyaning milliy xususiyatlarini shakllantirish, aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosatini takomillashtirish kabi masalalarda ilmiy bo‘shliqlar mavjud. Shuningdek, moliyaviy risklarni boshqarish tizimi va ularning raqamlashtirish jarayonlariga integratsiyasini o‘rganish ham dolzarb vazifalardan biridir. O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish nafaqat milliy iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi, balki mamlakatning xalqaro moliyaviy bozorlardagi raqobatbardoshligini ham oshiradi. Ilmiy tadqiqotlarning bu yo‘nalishdagi kengayishi xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni uyg‘unlashtirishga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 9-dekabrda 775-son “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini hamda kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishning konseptual asoslari, iqtisodiy mazmuni va asosiy prinsiplari bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, R.Rehan, F.Modilyani, M.Miller, E.Altman, F.Nayt, Dj.K.Van Xorn, Dj.M.Vaxovich, S.Ross, A.Damodaran, N.Z.Mabandlarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin². Ular tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ishlab

²Rehan R. et al. Capital structure determinants across sectors: Evidence from Malaysian listed firms // Heliyon. – 2023.; Modigliani, F.; Miller, M. H. - “The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment.” American Economic Review, 1958; Altman, E. I. - “Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy.” Journal of Finance, 1968; Corporate Financial Distress and Bankruptcy, 1983., Knight, F. H. - Risk, Uncertainty and Profit, 1921., Van Horne, J. C. - Financial Management and Policy, 1967. Wachowicz, J. M. - (with Van Horne) Fundamentals of Financial Management, do 13-edition. Ross, S. A. - “The Arbitrage Theory of Capital Asset Pricing.” Journal of Economic Theory, 1976; (with Brealey & Myers) Corporate Finance, Brigham, E. F.

chiqilgan modellar moliyaviy menejmentning mustaqil ilmiy yoʻnalish va fundamental fan sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Olimlar tomonidan aksiyadorlik jamiyat kapital tarkibini shakllantirishning fundamental-ilmiy asoslari, funksiyalari va tashkil etish mexanizmi, moliyaviy qarorlar qabul qilishda foydalaniladigan ekonometrik instrumentlarning ilmiy ahamiyati tushuntirib berilgan.

MDH davlatlarining olimlari Yu.Brighem, A.P.Ivanov, R.M.Sayfutdinov, E.A.Mamedov, I.A.Blank, I.Ya.Lukasevich, I.V.Sergeev, G.B.Polyak, S.V.Galiskaya, S.E.Kovan, V.V.Kovalev, V.V.Bikovskiy, N.V.Martinova, T.V.Teplova, O.V.Kovalenko va boshqalarning ilmiy ishlarida aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishning iqtisodiy-nazariy mazmuni, rivojlanish bosqichlari, moliya tizimini tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari oʻz ifodasini topgan³. Olimlar tomonidan MDH davlatlarida moliya bozorining rivojlanganlik darajasi, aksiyadorlik kompaniyalarining xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy menejmentning nazariy asoslari, milliy aksiyadorlik kompaniyalarida kapital tarkibini shakllantirishning oʻziga xos xususiyatlarini rivojlantirishda davlatning ishtiroki kabi masalalar ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishning iqtisodiy mohiyati va aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyating ayrim elementlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.E.Elmirzayev, R.X.Karlibayeva, X.X.Xudoyqulov, K.K.Kaxxarov, A.A.Abdugodirov, M.Sh.Abdubogiyev, N.A.Sherkuziyeva, O.N.Xamdamov, B.A.Usmonov va M.E.Egamovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida oʻrganilgan⁴.

- Financial Management: Theory and Practice; (with Houston) Fundamentals of Financial Management., Damodaran, A. - Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset, 1996 (3rd ed. 2012); Corporate Finance: Theory and Practice, 4th ed. 2022.; Mabandla N.Z. et al. Determinants of capital structure: Does growth opportunity matter? // Journal of Risk and Financial Management. – 2025.

³ Бригхэм Ю., Эрхардт М. Финансовый менеджмент. Теория и практика. – СПб.: Питер, 2019.; Иванов А.П. Структура капитала и финансовая устойчивость акционерных обществ в РФ // Финансы и кредит. – 2020. – №6. 20.; Сайфутдинов Р.Н. Оптимизация структуры капитала корпораций в условиях нестабильной экономики: дисс. ... канд. экон. наук. – Казань, 2018.; Мамедов Э.А. Управление структурой капитала промышленных предприятий Азербайджана // Экономические науки. – 2019. 23.; Бланк И. А. Основы инвестиционного менеджмента (Киев: Ника-Центр, 2001; 5-е изд. - 2011)., Лукаевич И. Я. - Финансовый анализ для руководителей и специалистов (М.: Альпина Паблишер, 2003; переизд.), Сергеев И. В. - Управление проектами (М.: Инфра-М, 2020, 10-е изд.), Поляк Г. Б. - Финансовый менеджмент: теория и практика (М.: Юрайт, 2023, 12-е изд.), Галиская С. В. - Финансовый риск-менеджмент (СПб.: Питер, 2019)., Кован С. Э. - "Оценка стоимости компаний в условиях нестабильного рынка," Корпоративные финансы, № 4, 2021., Ковалев В. В. - Финансовый анализ: управление капиталом, выбор инвестиций, анализ отчетности (М.: Проспект, 2019, 10-е изд.), Биковский В. В. - Финансы предприятий (М.: КНОРУС, 2018, 4-е изд.), Мартинова Н. В. - "Методика комплексной оценки инвестиционной привлекательности предприятия," Финансовый менеджмент, № 2, 2020., Теплова Т. В. - Корпоративные финансы: оценка и управление (М.: Юрайт, 2022, 3-е изд.); Коваленко О.В. Влияние структуры капитала на стоимость компании (на примере Украины) // Вестник экономической науки. – 2020.

⁴ Элмирзаев С.Э. Корпоратив молияни бошқаришда солиқ муносабатларини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc) диссертация автореферати. –Т.: БМА, 2017. 64 б.; Карлибаева Р.Х. Финансы акционерных обществ в условиях рынка. Авторев. дис. на соискание уч. степ.к.э.н. –Т.: БМА, 2007. 23с.; Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish: DSc – Toshkent, 2021. - 17 b.; Kaxxarov K.K. Развитие рынка ценных бумаг Узбекистана: дисс. канд. экон. наук. – М., 2010. – 132 с.; Abdugodirov A.A. Korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital tarkibini optimallashtirish: iqt. fan. nomz. dis. – Toshkent: TDIU, 2016. – 150 b.; Курбанов Ж.Ж. Давлат ва корпоратив тузилмалар ўртасидаги ўзаро

S.E.Elmirzayev tadqiqotlarida korporativ moliyada strategik yondashuvlar, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash usullari va investitsiya faoliyati samaradorligini tahlil qilishga, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, xavf-xatarlarni pasaytirish va korporativ shaffoflikni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. M.B.Xamidullin tadqiqotlari korporativ boshqaruv tizimini moliyaviy jihatdan takomillashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, investitsiya siyosatini rivojlantirish va korporativ tuzilmalarda moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini oshirish masalalari yechimlariga qaratilgan. R.Karlibayeva tadqiqoti O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyaviy strategiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, investitsiyalarni boshqarish va korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun kuchliroq moliya tizimlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda mahalliy misollar keltirilgan va moliyaviy hisobotda shaffoflikni oshirish hamda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatining kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirishga doir ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirish tizimini tashkil etish va uning asosiy instrumentlarini tadqiq etish;

moliya tizimida moliyaviy qarorlar qabul qilish va moliyaviy strategiyalarni baholashning ilmiy-fundamental yondashuvlarini tadqiq etish;

aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokning joriy holatini tahlil qilish va bozor faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

aksiyadorlik jamiyatlari kapital tuzilmasini optimallashtirish va boshqarish mexanizmini tahlil qilish orqali samaradorlikni oshirish yo'llarini belgilash;

kapital qiymatini baholashning metodologik jihatlari va xalqaro standartlar asosida multiplikator koeffitsientlarini milliy amaliyotda joriy etish imkoniyatlarini aniqlash;

moliyaviy risklarni baholashning ilmiy-fundamental asoslarini o'rganish orqali

мoлиязвий муносабатларни самарали ташкил этиш истиқболлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати –Т.: БМА, 2019. 50 б.; Abduboyev M.Sh. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minotini boshqarish va samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati –Т.:2025. Sherkuziyeva N.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini optimallashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2021. – 18 b.; Xamdamov O.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi metodologik asoslarini takomillashtirish diss. avtoreferati. DSc – Toshkent, 2023. – 32 b.; Usmonov B.A. Kapital aktivlarni baholash metodologiyasini takomillashtirish. Diss. avtoreferati. DSc – Toshkent, 2025. – 32 b.; Egamova M.E. "Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda daromadning roli". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati, Toshkent: TMI, 2019.-56 b.

moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ahamiyatini ochib berish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni baholashning amaldagi holatini tahlil qilish va xalqaro modellardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

aksiyadorlik jamiyatining kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirishga doir ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, xususan, “O‘zbekko‘mir” va “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada iqtisodiy-statistik, iqtisodiy-matematik modellashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, istiqbolli prognozlashtirish, korrelyatsion-regression tahlil, statistik ma'lumotlarni guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali va o‘z kapitali o‘rtasidagi maqbul nisbatni 30/70 darajasida belgilash orqali kapital tarkibini muvozanatlashtirish hamda moliyaviy samaradorlikni oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali tarkibini shakllantirishda bank kredit resurslarini jalb qilishga ko‘ra qarz kapitali riskini aniqlashda qarzning kapitalga nisbati koeffisient qiymatini «past risk» (0-0,3), «o‘rta risk» (0,31-0,7), «yuqori risk» (0,71) darajalariga ajratish orqali moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va moliyaviy dastaklardan oqilona foydalanish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalar paketini mahalliy va xalqaro kapital bozoriga ommaviy savdolarga chiqarishda anderrayter, investitsiya vositachilari va maxsus konsultantlarni jalb qilish orqali aksiyalar bozor qiymatining yuqori va quyi chegarasini aniqlash taklifi ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog‘ozlari qiymatining o‘shishini o‘zgarimas samaralar regression ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirishni samarali tashkil etish yo‘llari nazariy jihatdan asoslandi hamda uning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy muhitni shakllantirishda davlatning roli hamda uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tizimi ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish asosida kapital tarkibini shakllantirish bilan bog‘liq risklar aniqlanib, ularni kamaytirish bo‘yicha kompleks choralar belgilangan;

xorijiy mamlakatlardagi aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishda qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar o‘rganilib, ularni milliy amaliyotga moslashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishga oid ilg'or xorijiy tajribalarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, kapital tarkibini shakllantirishda mikroiqtisodiy darajada vujudga keladigan risklarni aniqlash va ularni guruhlashtirish, shuningdek, ushbu xatarlarning oldini olish va jamiyatlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan ko'rsatkichlarning amaliy tavsiyalar shaklida taklif etilishi bilan asoslanadi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi tomonidan chop etilgan rasmiy ma'lumotlardan foydalanildi, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida mavjud bo'lgan moliyaviy samaradorlik zaxiralari aniqlandi va ularning istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlari ekonometrik modellar asosida ishlab chiqilgan. Shuningdek, olingan ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar amaliyotda sinovdan o'tkazildi hamda yirik sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ma'qullanganligi bilan tadqiqot natijalari ishonchliligining yana bir isboti sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy xulosa va takliflardan O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish asoslarini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublika aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirishni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalarni bajarishga doir moliyaviy islohotlar dasturlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik jamiyatini kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali va o'z kapitali o'rtasidagi maqbul nisbatni 30/70 darajasida belgilash orqali kapital tarkibini muvozanatlashtirish hamda moliyaviy samaradorlikni oshirish taklifi "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-iyundagi 01-435-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy resurlarni jalb qilishi va kapital samaradorlikni oshirishga hamda rentabellik ko'rsatkichlari hisoblangan aktivlar va kapital samaradorlik koeffitsientlarini me'yoriy darajada saqlab qolish imkonini bergan;

aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali tarkibini shakllantirishda bank kredit resurslarini jalb qilishga ko'ra qarz kapitali riskini aniqlashda qarzni kapitalga nisbati koeffitsiyent qiymatini "past risk" (0 – 0,3), "o'rta risk" (0,31-0,7), "yuqori risk" (0,71) darajalariga ajratish orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlash va moliyaviy dastaklardan oqilona foydalanish taklifi "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-iyundagi 01-435-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur

taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini kapitali tarkibida bank kreditlar orqali jalb qilingan resurslarni faqatgina yuqori foyda keltiruvchi loyihalar mablag'larini yo'naltirish orqali foiz xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy richagdan oqilona fodalanish orqali aksiyadorlar daromadining ortishiga olib kelgan;

aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalar paketini mahalliy va xalqaro kapital bozoriga ommaviy savdolarga chiqarishda anderrayter, investitsiya vositachilari va maxsus konsultantlarni jalb qilish orqali aksiyalar bozor qiymatining yuqori va quyi chegarasini aniqlash taklifi "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-iyundagi 01-435-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida fond bozorida obligatsiyalar bilan bog'liq savdo hajmining ortishiga va aksiyadorlik jamiyatlarini fond bozoriga qarz instrumenti orqali faolligini oshirishga xizmat qiladi;

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlari qiymatining o'sishini o'zgarmas samaralar regression ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklif "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-iyundagi 01-435-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatining kapital rentabelligi va aktivlar rentabilligini hamda jamiyatning sof foydasi o'sish dinamikasini baholash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ishlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishining tarkibiy tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti tavsiflangan. Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya strukturasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini**

shakllantirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirishning nazariy asoslari, aksiyadorlik jamiyatlari kapitali tarkibini shakllantirishning tasnifi va manbalari hamda aksiyadorlik jamiyatlari kapitali tarkibini shakllantirish tamoyillarining asoslari yoritib berilgan.

Zamonaviy iqtisodiyotda aksiyadorlik jamiyatlari kapitalni markazlashtirish va samarali taqsimlashning asosiy vositalaridan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. AJning asosiy maqsadi sarmoyalarni (investitsiyalarni) jalb qilish orqali iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishdir. Adam Smit “Millatlar boyligi” asarida ta’kidlaganidek, kapitalning birlashtirilishi iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishi va yangi imkoniyatlarni ochish uchun zarur. Bu fikr hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib, AJlar iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega ⁵.

AJning iqtisodiy mohiyati uning asosiy xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Birinchidan, AJ mol-mulknii birlashtirish orqali yirik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. O.A.Jukovning ta’kidlashicha, “AJlar iqtisodiy yiriklikni ta’minlab, katta loyihalarni amalga oshirish uchun poydevor yaratadi”⁶. Ikkinchidan, aksiyadorlarning javobgarligi cheklanganligi ularning shaxsiy mol- mulkini himoya qiladi, bu esa sarmoya kiritishni xavfsiz qiladi.

Moliyaviy yondashuv	Ushbu yondashuv kapital tarkibini qarz va kapital nisbati sifatida belgilaydi. Bu kompaniya o‘z faoliyatini moliyalashtirish uchun foydalanadigan moliyaviy vositalarga qaratilgan bo‘ladi.
Iqtisodiyot yondashuv	Ushbu yondashuv kapital tarkibini kapital qiymati, tavakkalchilik va soliqqa tortishni hisobga olgan holda qarz va kapital o‘rtasidagi maqbul nisbat sifatida ko‘rib chiqadi. U kompaniyaning iqtisodiy jihatlari va maqsadlariga ko‘proq e‘tibor qaratadi.
Huquqiy yondashuv	Ushbu yondashuv kapital tuzilishining huquqiy jihatlari, masalan: aksiyadorlarning huquqlari, kreditorlar oldidagi majburiyatlari va boshqa huquqiy jihatlarga e‘tibor beradi.


1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirishdagi yodashuvlar⁷

Ma’lumki, AJning asosiy xususiyati kapitalning markazlashuvini ta’minlashdir. Bu xususiyat orqali bir necha shaxs va tashkilotlarning mablag‘lari birlashtiriladi. Natijada, yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Masalan, AJ ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yoki texnologik yangilanishlarni amalga oshirish uchun zarur mablag‘larni yig‘ishda qo‘shimcha aksiyalar chiqarishi mumkin. Bunda ishtirokchilarning mablag‘lari birlashib, katta miqdordagi kapital shakllanadi.

⁵ Smith A. The Wealth of Nations (An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations), first published: 1776, London.

⁶ Жуков О.А. Экономические основы акционерных обществ. М.: Экономика. 2005

⁷ Muallif ishlanmasi



2-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlari uchun kapital tarkibiy tuzilishining muhim jihatlari⁸

O‘z navbatida, kapital – bu aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish hamda uni rivojlantirishda ishtirok etadigan o‘z va jalb qilingan mablag‘larning yig‘indisi bo‘lgan iqtisodiy resursdir. Shuningdek, «kapital-ixtiyoriy almashinuvga asoslangan ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyat orqali foyda olish uchun foydalaniladigan o‘z-o‘zidan o‘sib boruvchi qiymatdir. Bu moddiy, intellektual va moliyaviy vositalar ko‘rinishidagi tovarlar to‘plami bo‘lib, ular yanada ko‘proq mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun manba hisoblanadi. Kapital turlari xilma-xildir. U dinamik tabiatga va bir shakldan ikkinchisiga o‘tish qobiliyatiga ega⁹. Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlari uchun muhim vazifa kapital tarkibini shakllantiradigan o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanishdir. Kapitalni shakllantiradigan va investitsiya qarorlarini qabul qilishda hamda aksiyadorlik jamiyatlarining bozor qiymatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini batafsil o‘rganish lozim. O‘z kapitali - bu korxonaning o‘ziga tegishli bo‘lgan, asosan ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan va aksiyadorlik jamiyatiga har qanday shaklda foyda keltiradigan mablag‘lar to‘plamidir. O‘z kapitaliga ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda kiradi.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlari zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Ular kapitalni markazlashtirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va sarmoyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida AJlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish va korporativ boshqaruvning xalqaro standartlariga moslashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini**

⁸ Muallif fikri

⁹ <https://economy-ru.info/info/4199/>

shakllantirish amaliyotining tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarining kapitalining hozirgi holati tahlil, Aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali holati tahlili va aksiyadorlik jamiyalarining kapitaliga ta’sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili bayon qilingan.

Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalining hozirgi holatini o’rganishning yana bir muhim jihati bu korxonalarining bozor qiymatiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning investitsion jozibadorligiga baho berishdir. Chunki kapitalning yetarli miqdorda bo’lishi aksiyalar bahosining barqarorligiga, dividend siyosatining izchilligiga va investorlarning ishonchiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Aksiyadorlik kapitali kuchli bo’lgan jamiyatlar iqtisodiy tebranishlarga kamroq bog’liq bo’ladi, qarzlarni qaytarish salohiyati yuqori bo’ladi va o’z biznes strategiyalarini erkin amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarining kapital holatini tahlil qilish ularning o’tgan davrdagi moliyaviy natijalarini qayta baholash, kelgusidagi rivojlanish istiqbollari aniqlash va korxonalar boshqaruviga amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim vazifadir. Ayni paytda mavjud kapital tarkibini o’rganish orqali moliyaviy mustaqillik darajasi, kapital yetarliligi, investitsion imkoniyatlar, qarzga bog’liqlik darajasi va foydaning qayta taqsimlanish mexanizmlarini real holatda ko’rish mumkin bo’ladi. Bu esa boshqaruv organlari, investorlar va manfaatdor tomonlarning to’g’ri qaror qabul qilishiga asos yaratadi.

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini kapital bozorida holati tahlili¹⁰

Ko’rsatkichlar	Birlik	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Savdolar hajmi	mlrd so‘m	0.51	1.15	4.71	2.62	19.18
O‘rtacha kunlik savdolar hajmi	mlrd so‘m	0.002	0.005	0.019	0.011	0.077
Bitta bitimning o‘rtacha hajmi	mlrd so‘m	14.2	16.1	58.4	6.4	43.2
Bitimlar soni	dona	35 983	71 187	80 652	411 393	443 849
O‘rtacha kunlik bitimlar soni	dona	141	285	327	1 659	1 790

Jadval ma’lumotlariga ko’ra, 2020–2024-yillarda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari bilan savdolar hajmi va faolligi sezilarli darajada oshgan. Xususan, savdolar hajmi 2020-yilda 0,51 mlrd so‘mni tashkil etgan bo’lsa, 2024-yilga kelib 19,18 mlrd so‘mga yetgan. O‘rtacha kunlik savdolar hajmi ham shu davrda izchil o‘tib borgan, xususan 0,002 mlrd so‘mdan 0,077 mlrd so‘mgacha, bu esa bozorda likvidlik oshgani va ishtirokchilar soni ko‘payganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bitta bitimning o‘rtacha hajmi yillar kesimida notekis o‘zgargan. Xususan, 2023-yilda pasayish kuzatilgan bo‘lib, bu yirik bitimlar o‘rniga ko‘p sonli mayda investorlar ishtirokidagi operatsiyalar ulushi oshgani bilan izohlanadi. Umuman

¹⁰ RFB “Toshkent” ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

olganda, jadval ma'lumotlari O'zbekiston kapital bozorida institutsional va chakana investorlar faolligi oshib borayotgani, bozor infratuzilmasi rivojlanayotgani hamda aksiyalar bozorining barqaror o'sish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarini aktivlari va majburiyatlari tahlili, mlrd. so'mda¹¹

"O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati					
Ko'rsatkich	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Uzoq muddatli aktivlar	2016	1858	1693	1533	2147
Joriy aktivlar	534	537	684	769	985
Jami aktivlar	2550	2395	2377	2303	3132
Uzoq muddatli majburiyatlar	1457	1248	1164	910	1522
Joriy majburiyatlar	296	335	356	480	666
Jami majburiyatlar	1753	1583	1521	1390	2188
"Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati					
Uzoq muddatli aktivlar	587	708	2 395	1 115	1 701
Joriy aktivlar	159	159	537	66	170
Jami aktivlar	746	867	2 377	1 754	1 870
Uzoq muddatli majburiyatlar	604	596	1 248	908	1 431
Joriy majburiyatlar	92	99	36	480	265
Jami majburiyatlar	697	695	1 521	1 390	1 696

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekko'mir AJda jami aktivlar 2020-yilda 2 550 mlrd so'mdan 2023-yilda 2 303 mlrd so'mgacha kamaygan, ammo 2024-yilda 3 132 mlrd so'mga yetgan. Bu o'sish asosan joriy aktivlarning 534 mlrd so'mdan 985 mlrd so'mgacha oshishi bilan izohlanadi. Jami majburiyatlar ham 2024-yilda 1 390 mlrd so'mdan 2 188 mlrd so'mgacha o'sgan bo'lib, bu qarz mablag'lari hisobiga faoliyatni kengaytirish bilan bog'liq hisoblanadi. "Sharg'unko'mir" AJda jami aktivlar 2020-yilda 746 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 2 377 mlrd so'mgacha keskin oshgan, 2024-yilda esa 1 870 mlrd so'mni tashkil etgan. 2022-yildagi o'sish uzoq muddatli aktivlarning 587 mlrd so'mdan 2 395 mlrd so'mgacha ko'payishi bilan izohlanadi. Jami majburiyatlar ham shu yilda 1 521 mlrd so'mga yetgani yirik investitsiya va qarz jalb etilganini ko'rsatadi.

Umuman, ma'lumotlar har ikki jamiyatda ham aktivlar o'sishi majburiyatlar bilan birgalikda ko'paymoqda, xususan rivojlanish asosan qarz va investitsiya resurslari hisobiga amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

¹¹ "O'zbekko'mir" va "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Aksiyadorlik jamiyatlari xususiy kapitalining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili¹²

"O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati					
Ko'rsatkich nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	31.25%	33.9%	36.0%	39.6%	30.1%
O'z kapitalining passivlardagi ulushi	31.25%	33.9%	36.0%	39.6%	30.1%
Rezerv kapitalining ulushi	103%	100.6%	94.6%	88.0%	85.2%
Taqsimlanmagan foydaning ulushi	-27%	-23.9%	-16.3%	-8.2%	-4.9%
Bir aksiyaning balans qiymati	5.33 so'm	5.43 so'm	5.73 so'm	6.11 so'm	6.32 so'm
Kapitalizatsiya koeffitsiyenti	31%	33.9%	36.0%	39.6%	30.1%
"Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati					
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	6.56%	7.31%	7.39%	5.61%	11.95%
O'z kapitalining passivlardagi ulushi	6.56%	7.31%	7.39%	5.61%	11.95%
Rezerv kapitalining ulushi	17.4%	13.2%	10.8%	9.1%	4.14%
Taqsimlanmagan foydaning ulushi	16.9%	18.8%	17.5%	13.5%	8.55%
Bir aksiyaning balans qiymati	4.89 so'm	6.79 so'm	8.25 so'm	9.83 so'm	22.37 so'm
Kapitalizatsiya koeffitsiyenti	6.56%	7.31%	7.39%	5.61%	11.95%

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekko'mir AJda moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 2020-yilda 31,25 % bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 39,6 %gacha oshgan, ammo 2024-yilda 30,1 %ga pasaygan. Bu holat 2024-yilda majburiyatlar ulushi oshgani bilan izohlanadi. Rezerv kapital ulushi 103 %dan 85,2%gacha kamaygan bo'lib, bu zararlarni qoplash va foydaning qayta taqsimlanishi natijasidir. Taqsimlanmagan foyda ulushi -27 %dan -4,9 %gacha yaxshilangan, bu moliyaviy barqarorlikning tiklanayotganini ko'rsatadi. Bir aksiyaning balans qiymati 5,33 so'mdan 6,32 so'mgacha oshgani aksiya qiymatining o'sish tendensiyasini aks ettiradi.

"Sharg'unko'mir" AJda moliyaviy mustaqillik past darajada saqlanib, 2020-yilda 6,56 %, 2024-yilda esa 11,95%ni tashkil etgan. Bu korxonada qarz mablag'lariga yuqori ekanligini va aksiyadorlik jamiyati faoliyati qarzga bog'langanligini ko'rsatadi. Rezerv kapital ulushi 17,4 %dan 4,14 %gacha keskin kamaygan. Biroq bir aksiyaning balans qiymati 4,89 so'mdan 22,37 so'mgacha oshgani aktivlar qayta baholanishi va kapital hajmining o'sishi bilan izohlanadi.

Umuman, jadval ma'lumotlari "O'zbekko'mir" AJda xususiy kapital

¹² "O'zbekko'mir" va "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

barqarorligi nisbatan yuqori, "Sharq'unko'mir" AJda esa kapital samaradorligi o'sish bosqichida, ammo moliyaviy mustaqillik hali past darajada ekanini ko'rsatadi.

4-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarini qarz kapitali tahlili¹³

"O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati					
Ko'rsatkich nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Jami qarz kapitali	1652	1583	1520	1390	2187
Uzoq muddatli bank kreditlari	1456	1241	1151	899	788
Qisqa muddatli bank kreditlari	0	25	7	5	0
"Sharq'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati					
Jami qarz kapitali	490	861	861	1653	1646
Uzoq muddatli bank kreditlari	426	788	788	980	993
Qisqa muddatli bank kreditlari	0	0	46	0	0

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "O'zbekko'mir" AJda jami qarz kapitali 2020-yilda 1 652 mlrd so'mdan 2023-yilda 1 390 mlrd so'mgacha kamaygan, ammo 2024-yilda 2 187 mlrd so'mgacha oshgan. Ushbu pasayish asosan uzoq muddatli bank kreditlarining 1 456 mlrd so'mdan 899 mlrd so'mgacha qisqarishi bilan bog'liq hisoblanadi. 2024-yilda qarz hajmining qayta o'sishi esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun yangi qarzlarni jalb etilganini ko'rsatadi. Qisqa muddatli kreditlar ulushi juda past bo'lib, bu qarz portfelining barqaror tuzilmasidan dalolat beradi.

"Sharq'unko'mir" AJda jami qarz kapitali 2020-yilda 490 mlrd so'mdan 2024-yilda 1 646 mlrd so'mgacha qariyb 3,4 barobar oshgan. Bu o'sish asosan uzoq muddatli bank kreditlarining 426 mlrd so'mdan 993 mlrd so'mgacha ko'payishi hisobiga ta'minlangan. 2022-yilda 46 mlrd so'm qisqa muddatli kredit jalb qilingani korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji oshganini ko'rsatadi.

Umuman, tahlil natijalariga ko'ra, "O'zbekko'mir" AJda qarz siyosati nisbatan muvozanatli, "Sharq'unko'mir" AJda esa rivojlanish asosan qarz kapitali hisobiga amalga oshirilayotgani va moliyaviy xatarlar darajasi yuqoriroq ekani kuzatiladi.

5-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarini qarz kapitali samaradorligini baholash ko'effitsiyentlari tahlili¹⁴

"O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati					
Ko'rsatkich nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Qarz ko'effitsiyenti (D)	0.66	0.66	0.64	0.60	0.70
Qarzni o'z kapital nisbati (D/E)	1.96	1.95	1.78	1.52	2.32
Foizlarni qoplash ko'effitsiyenti (ICR)	3.65	3.57	3.11	8.70	3.33

¹³ "O'zbekko'mir" va "Sharq'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹⁴ "O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

5-jadval davomi

Moliyaviy leveredj koeffitsiyenti (L)	2.96	2.95	2.77	2.52	3.32
"Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati					
Qarz koeffitsiyenti (D)	0.93	0.93	0.93	0.94	0.88
Qarzni o'z kapital nisbati (D/E)	14.25	12.68	12.68	16.83	7.36
Foizlarni qoplash koeffitsiyenti (ICR)	4.6	11.45	11.45	59.87	280.7
Moliyaviy leveredj koeffitsiyenti (L)	15.25	13.68	13.67	17.82	8.36

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "O'zbekko'mir" AJda qarz koeffitsiyenti 2020–2023-yillarda 0,66dan 0,60 gacha pasaygan bo'lsa, 2024-yilda 0,70 gacha oshgan. Bu 2024-yilda qarz kapitali ulushi qayta ko'payganini ko'rsatadi. Qarzning o'z kapitaliga nisbati koeffitsiyenti 2023-yilda 1,52 gacha tushgan, ammo 2024-yilda 2,32 ga oshgani investitsiya faoliyatini qarz hisobiga moliyalashtirish kuchaygani bilan izohlanadi. Foizlarni qoplash koeffitsiyenti 2023-yilda 8,70 ga yetgan bo'lsa, 2024-yilda 3,33 ga pasaygan, bu foiz xarajatlar ortganligini ko'rsatadi. Moliyaviy leveredj 2,52dan 3,32 ga oshgani moliyaviy xatarning o'sganini anglatadi.

